

BOLA RUHIY RIVOJLANISHINING ICHKI SABABLARIGA KO'RA YONDASHUVI

Abdusattorova Gulbaxorxon Qudratillo qizi

*Qo'qon universiteti Andijon filiali Boshlang'ich talim 1-bosqich 2-guruh guruhan
talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bola ruhiy rivojlanishining ichki omillar asosida shakllanishiga oid nazariy qarashlar hamda ilmiy yondashuvlar tahlil qilinadi. Bola psixikasining o'sishida biologik, genetik, individual xususiyatlar va temperament kabi omillarning o'rni yoritiladi. Ichki sabablarning bolaning emosional, intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi masalasi psixologik nazariyalar asosida yoritilgan. Maqolada bola shaxsining shakllanish jarayonida ichki sabablar va tashqi omillar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga ham alohida e'tibor qaratiladi.*

Kalit so'zlar: *bola ruhiy rivojlanishi, ichki sabablar, psixologik yondashuvlar, temperament, individual xususiyatlar, genetik omillar, psixik rivojlanish, shaxs shakllanishi*

Annotation: *Annotal theoretical views and scientific approaches are analyzed in this article on the basis of internal factors of child mental development. The role of factors such as biological, genetic, individual characteristics and temperament in the growth of child psyche. How to affect the child's emotion, intellectual and social development, which affects the intellectual and social development, is covered on the basis of psychological theories. The article also pays special attention to the relationship between internal reasons and external factors during the formation of the child's formation.*

Keywords: *Child Menticity Development, Internal Reasons, Psychological Apprentices, Tempering, Individual Features, Genetic Factors, Psychic Development, Formation*

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические взгляды и научные подходы на основе внутренних факторов психического развития ребёнка. Раскрыта роль таких факторов, как биологические, генетические, индивидуальные особенности и темперамент в развитии психики ребёнка. Рассматривается влияние этих факторов на эмоциональное, интеллектуальное и социальное развитие ребёнка с опорой на психологические теории. Особое внимание уделяется взаимосвязи между внутренними причинами и внешними факторами в процессе формирования личности ребёнка.

Ключевые слова: *психическое развитие ребёнка, внутренние причины, психологические подходы, темперамент, индивидуальные особенности, генетические факторы, развитие психики, формирование личности*

Inson hayotining ilk bosqichlarida amalga oshadigan ruhiy rivojlanish jarayoni murakkab va ko'p omilli bo'lib, uning samarali kechishi bola shaxsining to'laqonli

shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bola psixikasining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ichki va tashqi sabablarga bo'linadi. Ushbu maqolada asosan bola ruhiy rivojlanishining ichki omillariga, ya'ni biologik, genetik, temperament va individual psixologik xususiyatlardan kabi faktorlarning o'rniga alohida e'tibor qaratiladi. Har bir bola tug'ma xususiyatlari bilan dunyoga keladi va ularning psixik rivojlanish yo'li aynan shu xususiyatlardan asosida belgilanadi. Ayniqsa, temperament tipining bolaning emotsiyal muvozanati, ijtimoiy munosabatlari va kognitiv faoliyatiga ko'rsatadigan ta'siri psixologik tadqiqotlarda keng o'rganilgan. Ichki omillar bolaning tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirga kirishishi, ijtimoiylashuvi va o'zini shaxs sifatida anglab yetishida tayanch vazifasini bajaradi. Bola ruhiy rivojlanishini chuqur anglashda nafaqat tashqi pedagogik ta'sirlar, balki ichki psixologik holat va omillarni ham chuqur o'rghanish zarur hisoblanadi. Maqolada ushbu omillar nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilinib, bolaning ruhiy rivojlanishidagi ichki sabablar va ularning o'zaro bog'liqligi ochib beriladi.

Bolaning ruhiy rivojlanishi tug'ilishidan boshlab, hatto homiladorlik davridan e'tiboran shakllanib boradi. Bu rivojlanishda ichki sabablarga asoslangan omillar alohida o'rinni egallaydi. Eng avvalo, biologik omillar — ya'ni bolaning nerv tizimi holati, miya faoliyatining rivojlanish darajasi, organizmning umumiy sog'lomligi uning psixik jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tug'ma yoki prenatal davrda yuzaga kelgan biologik xususiyatlardan bolaning keyingi intellektual va emotsiyal salohiyatini belgilab beradi. Genetik omillar bola ruhiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ba'zi temperament turlari, stressga chidamlilik, asabiylilik yoki ijtimoiy faol bo'lish kabi xususiyatlardan nasldan-naslga o'tishi mumkin. Genetik meros orqali olingan psixologik xususiyatlardan bolaning tashqi muhitga bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Bu esa bolaning shaxsiy individualligini belgilab, uni boshqa tengdoshlaridan farqlab turadi. Temperament esa bola shaxsiyatining asosiyligi poydevori sifatida qaraladi. Temperament tipi bolaning harakatlari, his-tuyg'ulari va tafakkur tezligiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, xolerik tipdagi bolalar serharakat, tezkor, lekin barqarorlikda muammoga ega bo'lishi mumkin; flegmatiklar esa aksincha, sekin, biroq chuqur fikrlovchi va izchil xarakterga ega bo'ladilar. Ushbu holatlar bola bilan ishlovchi pedagog va ota-onalarning yondashuviga bevosita ta'sir qiladi. Individual xususiyatlardan ya'ni bola o'ziga xos qiziqishlari, iste'dodi, hissiy javob berish darajasi va tafakkur turi ham ichki sabablar sirasiga kiradi. Har bir bola o'ziga xos "ichki dunyo"ga ega va u bilan hisoblashgan holda pedagogik va psixologik yondashuvlar amalga oshirilsa, ruhiy rivojlanish samarali kechadi. Masalan, vizual, eshitish yoki kinestetik tarzda axborotni yaxshi qabul qiladigan bolalar turlicha o'rghanish uslublariga ehtiyoj sezadilar. Ruhiy rivojlanishning ichki omillarini tahlil qiluvchi bir qator psixologik nazariyalar mavjud. Masalan, Zigmund Freyd bola psixikasining dastlabki yillarda ichki instinktlar (id, ego, superego) asosida shakllanishini urg'ulagan. Erik Erikson esa bola rivojlanishini bosqichma-bosqich ijtimoiy va psixologik muammolarni yengib o'tish jarayoni sifatida tavsiflagan. J. Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasida esa aqliy faoliyatning

bosqichma-bosqich rivojlanishi ichki biologik omillar va atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirda yuzaga chiqadi, deb ta'kidlangan. Eng asosiysi, bola rivojlanishida ichki sabablar bilan tashqi muhit o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Ichki omillar bolaning imkoniyatlarini belgilab bersa, tashqi muhit ya'ni oilaviy muhit, tarbiya uslubi, ta'lim va ijtimoiy tajriba bu imkoniyatlarning ochilishiga imkon yaratadi yoki aksincha, ularni cheklashi mumkin. Pedagogik jarayonlarda bolalarning ichki psixologik holati, ularning tug'ma va individual xususiyatlari e'tiborga olinishi zarur.

Bola ruhiy rivojlanishida ichki sabablarning ta'siri nafaqat ilk bosqichlarda, balki o'sish va voyaga yetish davrlarida ham o'z aksini topadi. Masalan, bolaning qiyinchiliklarga nisbatan ichki psixologik chidamliligi (rezistentligi), o'zini anglash darajasi va motivatsiyasi kabi psixik holatlar ichki omillar tomonidan belgilanadi. Ushbu jihatlar bola mакtabga borgach, o'qishdagi muvaffaqiyat, jamoadagi ijtimoiy faollik va o'zini ifoda etishida muhim rol o'ynaydi. Bolada ichki motivatsiyaning shakllanishi ham ichki omillar bilan chambarchas bog'liq. Bu – bolaning o'z xohishi bilan faoliyatga kirishishi, bilim olishga ichki ehtiyoj sezishi, qiziqishlari va mustaqil harakat qilishga bo'lgan intilishidir. Ichki motivatsiyaning shakllanishida bolalikdan boshlab beriladigan emotsiyonal qo'llab-quvvatlov, o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirish, tanqid o'rниga rag'bat berish muhim hisoblanadi. Aks holda, bola tashqi rag'batlargagina bog'lanib qoladi va bu uning mustaqil psixik rivojlanishini cheklaydi. Shu nuqtai nazardan, V. S. Muxina, L. S. Vygotskiy, A. N. Leontyev, D. B. Elkoniн kabi rus olimlarining ilmiy qarashlari alohida e'tiborga loyiq. Ularning fikricha, bolaning psixik rivojlanishi – bu tug'ma xususiyatlар va tashqi ijtimoiy tajriba o'rtasidagi uzluksiz dialektik jarayondir. L. S. Vygotskiy o'zining "yaqin rivojlanish zonasи" haqidagi konsepsiyasida bola rivojida ichki salohiyatni tashqi muhit bilan uyg'unlikda ro'yobga chiqarishni ta'kidlaydi. Bu esa bola bilan ishlashda faqatgina tayyor bilimlar emas, balki uning ichki imkoniyatlarini hisobga olish lozimligini ko'rsatadi. Ichki sabablarning psixik rivojlanishga ta'sirini tahlil qilishda zamonaviy neyropsixologiya ham muhim ma'lumotlar beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolaning miya faoliyatidagi individual farqlar, asab tizimining turli xususiyatlari (masalan, e'tibor, xotira, sezuvchanlik darajasi) uning o'quv faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu omillarni e'tiborga olgan holda dars jarayonlarini moslashtirish, differensial yondashuvni qo'llash, har bir bolaga individual yondashish muhimdir. Amaliy jihatdan, bola bilan ishlovchi mutaxassislar (pedagoglar, psixologlar, logopedlar va boshqalar) bolaning ichki xususiyatlarini aniqlash va ular asosida shaxsiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishlari lozim. Har bir bola o'zining tabiiy rivojlanish sur'ati va yo'nalishiga ega bo'lganligi sababli, uni boshqa bolalar bilan solishtirish emas, balki o'z rivojlanish chizig'ida qo'llab-quvvatlash muhim sanaladi. Madaniy kontekst ham bolaning ichki rivojlanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Har bir jamiyatning qadriyatlari, tarbiya uslubi, ona tilidagi muloqot shakllari bolaning ichki psixologik holatiga singib boradi. Har qanday rivojlanish modeli universal bo'lishi mumkin emas – u milliy va madaniy o'ziga xosliklarga mos ravishda takomillashtirilishi lozim.

Ilmiy metodologiya: Bola ruhiy rivojlanishining ichki sabablariga asoslangan yondashuvni o'rganish uchun sifatli tadqiqot (qualitative research) metodlari tanlandi. Tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvi sifatida psixologik-fenomenologik tahlil asosida bolaning individual ichki holatlari, ehtiyojlari, shaxsiy tajribalari hamda ularning rivojlanish jarayoniga ta'sirini chuqur tahlil qilish maqsad qilingan. Metod sifatida yarimstrukturaviy intervyular, psixologik kuzatuvlar hamda kontent tahlili qo'llanildi. Tadqiqot ishtirokchilari sifatida 5-10 yoshdagi bolalar, ularning ota-onalari va mакtabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan psixologlar tanlab olindi. Tadqiqot davomida bolaning ruhiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi ichki omillar – motivatsiya, emotsional ehtiyojlar, qiziqishlar, shaxsiy tajriba va ijtimoiy o'zaro munosabatlar psixodinamik yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqotda Lev Vygotskiy, Zigmund Freyd, Erik Erikson, shuningdek, zamonaviy psixologik yondashuvlardan – konstruktivizm, kognitiv rivojlanish nazariyasi (J. Piaget), va insonparvar psixologiya (K. Rojers) konsepsiyalardan foydalanildi. Tahlil jarayonida induktiv yondashuv qo'llanilib, har bir bolaning psixologik portreti individual tarzda tahlil qilindi. Ma'lumotlar maxfiylik tamoyillari asosida yig'ilib, ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlari yashirin saqlandi. Olingan natijalar asosida bolaning ruhiy rivojlanishidagi ichki omillarning o'zaro ta'siri, ularning rivojlanish bosqichlariga ko'ra o'zgarishi va pedagogik jarayonda bunday ichki sabablarni hisobga olish zaruriyati haqida xulosalar chiqarildi. Bola ruhiy rivojlanishining ichki sabablarini aniqlashda kompleks yondashuv asos qilib olindi. Bu yondashuv doirasida biologik, ijtimoiy va psixologik omillar birgalikda o'rganilib, ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. Bolaning individual rivojlanish sur'atlari, emotsional barqarorligi, o'z-o'zini anglash darajasi, ichki motivatsiyasi va hayotiy tajribalari singari jihatlar markaziy tahlil nuqtasi sifatida qaraldi.

Tadqiqot jarayonida intervyular maxsus tayyorlangan savolnomalar asosida olib borildi. Savollar bolaning emotsional dunyosi, qiziqishlari, orzulari, qo'rquvlari va o'ziga bo'lgan munosabati haqida chuqur ma'lumot olishga yo'naltirildi. Ota-onalar bilan o'tkazilgan suhbatlarda esa bola tarbiyasida psixologik yondashuvlar, individual farqlarni hisobga olish darajasi va ota-onalarning pedagogik bilimlari tahlil qilindi. Psixologlar bilan olib borilgan suhbatlar orqali esa bola ruhiy rivojlanishining murakkab jihatlari haqida amaliy ma'lumotlar to'plandi. Kuzatuvlar bola o'z tabiiy muhitida o'yin paytida, tengdoshlari bilan muloqotda, tarbiyachilar bilan aloqada bo'lgan holatlarda olib borildi. Kuzatuv natijalari bolaning ruhiy holati, o'zini tutish uslubi, hissiy reaksiyalari va kommunikativ qobiliyatları haqida muhim ma'lumotlar berdi. Ushbu holatlar tahlil qilinar ekan, bola shaxsining ichki faolligi, tashqi stimullarga bo'lgan ichki javobi va ularning ruhiy rivojlanishdagi roli chuqur yoritildi. Tadqiqotda kontent tahlili usuli orqali bolalar tomonidan chizilgan rasm va yozilgan qisqa hikoyalarning semantik tahlili ham amalga oshirildi. Ushbu tahlil bola tasavvurining tarkibi, emotsional fon, ichki holat va psixik ehtiyojlar haqida bilvosita ma'lumot berdi. Ushbu metod bolaning verbal ifoda orqali yetkazib bera olmaydigan

ichki holatlarini tushunishga yordam berdi. Bolaning ichki psixik faoliyatining dinamikasini, ruhiy holatining o'zgaruvchanligini, shuningdek, har bir bolaning rivojlanishida individual yondashuv zarurligini asoslash imkonini berdi. Olingan natijalar asosida bola ruhiy rivojlanishining ichki sabablarini aniqlashga doir tahliliy model ishlab chiqildi. Ushbu modelda asosiy e'tibor bolaning ichki resurslarini aniqlash, ularni rivojlantirish yo'llarini taklif qilish hamda tarbiyaviy jarayonda bu omillarni hisobga olishga qaratilgan.

Xulosa: Bola ruhiy rivojlanishining ichki sabablariga asoslangan yondashuv uni to'laqonli va har tomonlama anglashga xizmat qiladi. Maqolada ko'rib chiqilgan biologik, genetik, temperament va individual xususiyatlar bolaning psixik rivojlanishida asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu ichki omillar bolaning tug'ma salohiyatini, o'ziga xosligini va ijtimoiy muhitga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Bu esa o'z navbatida, bolaning emotsiyal barqarorligi, intellektual faoliyati va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Psixologik nazariyalar asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ichki omillar nafaqat bola rivojlanishining boshlang'ich bosqichlarida, balki keyingi hayotiy davrlarida ham uning shaxsiy kamolotiga asos bo'ladi. Ichki va tashqi omillar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish bolaning tabiiy imkoniyatlarini to'laqonli ochishga yordam beradi. Bolaning ruhiy rivojlanishini samarali yo'lga qo'yish uchun uning individual xususiyatlari, psixologik ehtiyojlari, tug'ma temperament va genetik asoslari chuqur tahlil qilinishi va pedagogik jarayonga moslashtirilgan holda qo'llanishi lozim. Ichki sabablarni anglash bola bilan ishslashda noziklik, yondashuv farqliliginu talab qiladi va bu orqali har bir bolada shaxsiy o'sish uchun qulay psixologik muhit yaratish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva G. – Bola psixologiyasi. Toshkent O'qituvchi, 2017.
2. Raxmonqulova S. – Psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar. Toshkent TDPU nashriyoti, 2019.
3. Madrahimov N. – Oila va bola psixologiyasi. Toshkent IQTISOD-MOLIYA, 2020.
4. Sharipova M. – Bola shaxsi va uni shakllantirish. Toshkent Fan va texnologiya, 2016.
5. Nishanova S. – Pedagogik va yosh davrlar psixologiyasi. Toshkent O'qituvchi, 2018.
6. Xojahmedov N. – Bola va o'smirlar psixologiyasi. Toshkent Yangi asr avlod, 2015.
7. Karimova Z. – Ruhiy rivojlanishning psixologik asoslari. Toshkent Ilm ziyo, 2021.
8. To'xtasinov B. – Ta'lim psixologiyasi. Toshkent Noshir, 2019.
9. Turaev A. – Bola psixikasi va uni o'rganish metodlari. Toshkent TDPU, 2020.

10. Amonov Sh. – Psixologik xizmat va pedagogik yondashuvlar. Toshkent Fan, 2022.